


NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2024- YIL YANVAR-NOYABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




**Tel.: 69-211-72-00
www.namstat.uz**

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2024-yil yanvar-noyabr oylarida


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 26 969,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 108,2 % ni tashkil etdi.

yanvar-noyabr
mlrd. so'mda




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,5 % ni tashkil etdi.

yanvar-noyabr
FHI, % da




yanvar-noyabr
ulushi, % da



2024- yil yanvar-noyabr oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 104,5 % ni tashkil etmoqda.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 109,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat

2024- yil yanvar-noyabr oylarida



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 21 892,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,2 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2023- yilning yanvar-noyabr oylarida – 1,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,3 % (8,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,0 % (16,3 %) va quyi texnologiyalisi – 74,6 % (73,5 %) ni tashkil etdi.



2024- yil yanvar-noyabr oylarida

Jami sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarishning ulushi 12,52% (2023-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 16,4 % (2023-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,4 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,9 % (2023-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 142,3 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,8 % (2023-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 78,1 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,0 % (2023-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



2024- yil yanvar-noyabr oylarida



2024-yilning yanvar-noyabr oylari davomida jami sanoatda 28,1 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 70,9 % ga kamaygan), 23,2 ming tonna paxta tolasi (89,7 % ga yetdi), 10,5 ming tonna omuxta yem mahsulotlari (54,8 % ga kamaygan) hamda 36,8 ming tonna paxta chigiti (81,4 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr	2024- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	29,9	10,5	-19,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	39,7	28,1	-11,6
Paxta tolasi, ming tonna	25,9	23,2	-2,7
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	7,1	8,4	1,3

2024- yil yanvar-noyabr oylarida


Metallurgiya sanoati

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,6 % ni tashkil etib, uning hajm 104,8 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga, metallurgiya sanoatining ulushi 2,8 % ga teng bo'lib, hajm esa, 758,2 mlrd so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 1 157,4 mlrd so'mni yoki jami sanoat hajmining 5,3 % ni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 1 446,4 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 3 666,4 mlrd so'mni, joriy 2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 4 429,6 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 763,1 mlrd so'mga ortgan.



2024- yil yanvar-noyabr oylarida

Ichimliklar ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 736,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 1 213,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 477,0 mlrd. so'mga ko'paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-noyabr oylarida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 103,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 105,9 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 5 593,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ja'mi ishlab chiqariladigan sanoat tarkibida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 11,3 % ni, ya'ni jami 2 300,0 mlrd so'mni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 12,2 % ni tashkil etib, 3 283,9 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2023-yilning mos davriga nisbatan 983,8 mlrd. so'mga oshgan.



2024- yil yanvar-noyabr oylarida

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 615,4 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 3,0 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha 541,3 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 14,5 mlrd. so'mni tashkil etib jami sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,4 mlrd. so'mga kamayib, 14,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar jami sanoatdagi hajmi 551,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 20,7 mlrd. so'mga kamaygan va 531,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




2024-yil yanvar-noyabr oylarida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 608,0 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 17,1 % ini) tashkil etadi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 455,6 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr	2024-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	6 446,9	6 104,1	-342,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	50,6	80,6	30,0

2024- yil yanvar-noyabr oylarida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 359,6 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr	2024- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	116,5	143,2	26,7
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	35,2	60,4	25,2


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 26,7 mlrd. so'm yoki 22,9 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 25,2 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatildi.

2024-yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 302,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,6 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2024- yil yanvar-noyabr)

